O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“UZLUKSIZ TA’LIMNING GLOBAL RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: RAQAMLASHTIRISH, INTEGRATSIYA VA MODERNIZATSIYA”

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

(15-may, 2025-yil, Urganch sh.)

Urganch–2025

4. Выготский Л.С. Мышление и речь. — М.: Издательство 'Просвещение', 2000. — 192 с.
5. Пиаже Ж. Психология интеллекта. — М.: 'Прогресс', 1972. — 360 с.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI TABIIY VA IQTISODIY MANBAALARDAN OQILONA FOYDALANISHGA O‘RGATISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o‘g‘li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tabiiy va iqtisodiy manbaalardan oqilona foydalanishga o‘rgatishning pedagogik mexanizmlari yoritilgan. Unda ekologik va iqtisodiy tarbiyaning dastlabki bosqichdan shakllantirilishi, bolalarning resurslarga nisbatan mas’uliyatli munosabatini rivojlantirishda o‘qituvchining roli, dars mazmunini integratsiyalash, amaliy mashg‘ulotlar, didaktik o‘yinlar va interaktiv metodlardan foydalanishning samarali yo‘llari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: tabiiy va iqtisodiy manbaalar, ekologik va iqtisodiy tarbiya, pedagogik mexanizmlar, integratsiyalash, didaktik o‘yinlar, interaktiv metodlar

Абстрактный. В статье рассматриваются педагогические механизмы обучения учащихся младших классов разумному использованию природных и экономических ресурсов. Анализируется формирование эколого-экономического образования с начального этапа, роль учителя в формировании у детей ответственного отношения к ресурсам, эффективные способы интеграции содержания урока, использования практических упражнений, дидактических игр, интерактивных методов.

Ключевые слова: природные и экономические ресурсы, эколого-экономическое образование, педагогические механизмы, интеграция, дидактические игры, интерактивные методы

Abstract. The article discusses pedagogical mechanisms for teaching primary school students to use natural and economic resources rationally. It analyzes the formation of ecological and economic education from the initial stage, the role of the teacher in developing children’s responsible attitude towards resources, effective ways of integrating lesson content, using practical exercises, didactic games and interactive methods.

Keywords: natural and economic resources, ecological and economic education, pedagogical mechanisms, integration, didactic games, interactive methods

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tabiiy va iqtisodiy manbaalardan oqilona foydalanishga o‘rgatish — bu ularning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy ongini shakllantirishga qaratilgan muhim tarbiyaviy vazifadir. Bu jarayonda pedagogik mexanizmlar tizimli va izchil yondashuvni talab qiladi. Atrof-muhit, iqtisodiyot, mehnat, texnologiya kabi mavzularni tabiiy fanlar, ona tili, hayot xavfsizligi asoslari darslariga uyg‘unlashtirish. Bunday jarayonlarda esa suv, havo, energiya kabi tabiiy resurslar haqida boshlang‘ich tushunchalarni shakllantirish va ularni tejash yo‘llarini o‘rgatish ham bugungi kunning bosh masalasi hisoblanadi.

Tabiiy resurslar va iqtisodiy boyliklarni samarali boshqarish orqali o‘quvchilar iqtisodiy ong va mas’uliyatni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarni turli iqtisodiy masalalar, resurslarning taqsimlanishi, ularni tejash va to‘g‘ri taqsimlash kabi mavzular bilan tanishtirish orqali ularning iqtisodiy ko‘nikmalarini mustahkamlash mumkin. Umuman olganda, ta’lim

jarayonida o‘quvchilarga tabiat va iqtisodiy boyliklardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini o‘rgatish, ularni nafaqat iqtisodiy, balki ekologik ongli shaxslar sifatida tarbiyalashga imkon yaratadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tabiiy va iqtisodiy manbaalardan oqilona foydalanishga o‘rgatishning pedagogik mexanizmlari haqida dastlabki ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz uchun quyidagi yo‘nalishlarni tahlil qilamiz.

Pedagogik mexanizmlarga quyidagilar kiradi:

- darsliklar va dars mazmunining mosligi
- o‘yin, amaliyot, loyihaviy faoliyatlar
- interfaol metodlar (munozara, guruhli ish, dramatizatsiya)
- o‘qituvchining shaxsiy namuna ko‘rsatishi
- axborot texnologiyalaridan foydalanish
- tashkiliy-tarbiyaviy tadbirlar (eko-aksiyalar, viktorinalar, ko‘rgazmalar)
- rag‘batlantirish va baholash tizimi kabilarni o‘z ichiga oladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tabiiy va iqtisodiy manbaalardan oqilona foydalanishga o‘rgatishning hozirgi kundagi ahamiyati nihoyatda yuqori bo‘lib, bu mavzu nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy, ekologik va global miqyosdagi dolzarb muammolar bilan chambarchas bog‘liqdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarga resurslar cheklangan va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydigan bo‘lsa, bu jarayonni ta’lim tizimiga kiritish orqali o‘quvchilarni mas’uliyatli va ongli foydalanishga o‘rgatish mumkin. Tabiiy resurslardan foydalanishda ekologik muvozanatni saqlash, iqtisodiy resurslarni tejash va ularni oqilona boshqarish masalalari har bir shaxsning jamiyatdagi o‘rnini belgilashda asosiy faktor hisoblanadi. Shuning uchun, o‘quvchilarga bu kabi ko‘nikmalarni shakllantirish, ularning iqtisodiy va ekologik mas’uliyatini kuchaytirish, kelajakda barqaror rivojlanishga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tabiiy va iqtisodiy manbaalardan oqilona foydalanishga o‘rgatishning nazariy asoslari — bu pedagogik faoliyatning ilmiy, psixologik, didaktik va ijtimoiy poydevorini tashkil etuvchi g‘oya, qonuniyat va konsepsiyalardir. Quyida bu jarayonning nazariy asoslarini kengroq yoritamiz:

Pedagogik asoslar. Bunga;

- har bir bola — shaxs sifatida resurslarga nisbatan ongli munosabat shakllantiruvchi tarbiya obyekti va subyekti hisoblanadi.
- shaxsning barqaror, ekologik va iqtisodiy qarashlarini maktabdan boshlab rivojlantirish zarur.
- faqat bilim berish emas, balki resurslarni asrashga doir axloqiy qadriyatlar ham bolalikdan singdiriladi.
- “tejamkorlik”, “javobgarlik”, “tabiatga mehr” tushunchalari ta’lim jarayoniga singdiriladi.

Didaktik asoslarga esa;

- matematika darsida vaqt va pulni tejash, atrof-muhitni himoya qilishga oid masalalar yechimi.
- bolalar o‘rganayotgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llashi kerak: chiqindilarni ajratib yig‘ish, energiyani tejash, suvni isrof qilmaslikni o‘rganadilar.

Psixologik-pedagogik asoslar;

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘proq obrazli, hissiy, faol o‘rganishga moyil bo‘ladi.
- shu bois, ekologik va iqtisodiy tarbiya didaktik o‘yinlar, multfilmlar, amaliy mashg‘ulotlar orqali samarali beriladi.
- bolalar kattalarning (o‘qituvchi, ota-ona) harakatidan o‘rnak oladilar. o‘rgatuvchi shaxslar o‘zlarining tejamkor, mas’uliyatli xatti-harakati bilan bolalarga namunaviy ta’sir ko‘rsatadi.

Ekologik va iqtisodiy ta’lim nazariyasi;

- **erta yoshdan bolalarda pul, mehnat, vaqt va buyumlarning qadri haqida tasavvur paydo bo‘lishi ularni tejamkorlikka o‘rgatadi.**
- **o‘quvchilarni kelajakda ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy muvozanatga erishish uchun javobgar shaxslar sifatida tarbiyalash g‘oyasiga asoslanadi.**
- **o‘quvchilar bilimni tayyor holda emas, balki o‘z tajribalari asosida qurib boradilar (tajriba, kuzatuv, loyihalar orqali) namoyon bo‘ladi.**

O‘quvchilarga resurslarni samarali foydalanish va tejashning ahamiyatini o‘rgatish orqali ularning mas’uliyatli yondashuvi shakllantiriladi. Bunday yondashuv nafaqat iqtisodiy, balki ekologik jihatdan ham foydalidir. Misol uchun, energiyani tejash, suvni isrof qilmaslik, chiqindilarni kamaytirish kabi harakatlar orqali o‘quvchilar tabiat va iqtisodiy boyliklarni yaxshiroq boshqarishga o‘rgatiladi. Natijada tabiat va iqtisodiy boyliklarni samarali boshqarish o‘quvchilarga barqaror rivojlanishning asosiy tamoyillarini o‘rgatadi. Barqaror rivojlanish — bu iqtisodiy o‘sish, ekologik muvozanat va ijtimoiy farovonlikni birlashtirishdir. O‘quvchilarni bu jarayonga jalb qilish orqali, ularni kelajakda nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy mas’uliyatni his qiladigan shaxslar sifatida tarbiyalash mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tabiiy va iqtisodiy manbaalardan oqilona foydalanishga o‘rgatishning pedagogik mexanizmlari nafaqat ekologik va iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish, balki jamiyatda barqaror rivojlanish g‘oyalarini ilgari surish uchun ham katta ahamiyatga ega. Bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri — resurslarning cheklanganligi va ulardan oqilona foydalanish zarurati. O‘quvchilarda ekologik ong va iqtisodiy mas’uliyatni shakllantirish, ularni tejamkorlik va mas’uliyatlilikka o‘rgatish jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Boshlang‘ich ta’limda bu masalalarni o‘rgatishda pedagogik mexanizmlar, ya’ni ta’lim mazmunini integratsiyalash, amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvlar, interfaol metodlar va shaxsiy namuna katta rol o‘ynaydi. Yosh psixologiyasi va ijtimoiy ta’sir asosida o‘quvchilarga ta’lim berish o‘zining samaradorligini ko‘rsatmoqda, chunki ular o‘rganayotgan bilimlarni hayotiy vaziyatlarga qo‘llashadi. Kelajakda, ekologik va iqtisodiy qarorlar qabul qilishda o‘quvchilarning tengdoshlari va kattalar tomonidan qo‘llaniladigan amaliy natijalar o‘zgarishi mumkin. Shuning uchun, bu sohada davom etayotgan ishlar va metodik yangiliklar katta ahamiyatga ega. Umuman olganda, boshlang‘ich ta’limda tabiiy va iqtisodiy manbaalardan oqilona foydalanishga o‘rgatish o‘quvchilarni nafaqat ilmiy bilimlarga, balki ijtimoiy mas’uliyatga ham o‘rgatadi. Bu esa ularga hayotda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishda yordam beradi va kelajakda barqaror rivojlanishga erishishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son 2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori.
2. A.Vahobov,S.Xajibakirov,Sh.Xo‘jayorov “Yashil iqtisodiyot” Darslik. Toshkent. Unversitet 2022
3. Alimxodjayev S.R., Ibragimova S.A. “Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti” O‘quv qo‘llanma, Toshkent, ToshDTU 2008
4. Sh.Sh. Mavlonov “Yashil iqtisodiyot” O‘quv qo‘llanma Toshkent. Makon Savdo Print 2024
5. Nurullayeva Sh. Boshlang‘ich sinfda pedagogik texnologiyalarni amalga oshirishda didaktik o‘yinlarning o‘rni. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Q.: Nasaf, 2001.224-225-bet.,
6. Nurullayeva Sh. “Zamonaviy o‘qituvchi mahorati va ijodkorligi muammolari.” Xalq ta’limi. 2021. №3. 6-9-b

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MASAL O‘QITISH METODIKASI USTIDA ISHLASH

Abdusharipova Gulrux Otabek qizi, Tojiyeva Gulchehra Dilmurod qizi
Urganch davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda masal o‘qitish metodikasi ustida qanday ishlash mumkinligi hamda masalning o‘quvchilar tarbiyasidagi o‘rni, masallardagi majoziy obrazlarning va ularning xarakter-xususiyatlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasiga ta’siri haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: masal, metodika, sadoqat, do‘stlik, shukronalik hissi, majoziy obraz, kinoyaviy xarakter, ruhiy emotsiya.

Аннотация. В данной статье рассматривается методика преподавания басен в начальных классах, а также роль басен в воспитании учащихся. Обсуждается влияние аллегорических образов и их характерных черт на формирование нравственных качеств у младших школьников, таких как преданность, дружба, чувство благодарности, эмоциональное восприятие и развитие морали.

Ключевые слова: басня, методика, преданность, дружба, благодарность, аллегорический образ, ироничный характер, душевные эмоции.

Annotation. This article discusses the methodology of teaching fables in primary school and the role of fables in the moral upbringing of students. It explores the impact of allegorical characters and their traits on the development of values such as loyalty, friendship, gratitude, emotional perception, and moral sensitivity in young learners.

Keywords: fable, methodology, loyalty, friendship, gratitude, allegorical character, ironic nature, emotional impact.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyasini, axloqiy sifatlarini, ongini shakllantirish va rivojlantirishga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Shu jumladan, boshlang‘ich sinflarda masal o‘qitishni takomillashtirish va interfaol metodlar yordamida o‘quvchilarga

50.	**Ю.Н.ЭГАМБЕРДИЕВА**, **С.САТТАРОВА.** ФОЛЬКЛОР ЗАНИМАЕТ ВАЖНОЕ МЕСТО В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ	766
51.	**SH.A.RAXIMOVA, M.Q.SOTIMOVA**. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MATEMATIKA DARSLARIDA MASALA YECHISHGA O‘RGATISHDA ULAR USTIDA ISHLASH	768
52.	**F.J.XUDAYBERGANOVA**. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INKLYUZIV TA’LIMNI TASHKIL QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	774
53.	**D.R.SHABBAZOVA, M.A.XURRAMOVA**. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ZAMONAVIY DARSLIKLAR MODELI VA UNING TA’LIM JARAYONIGA TA’SIRI	777
54.	**F.YAKUBOVA, M.BOBOJONOVA**. PEDAGOGIK AMALIYOT JARAYONIDA TALABALARNING KASBIY MAHORATINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUV	781
55.	**Н.УРАЗОВА, М.РАЖАБОВА**. ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕРЕСА К ЧТЕНИЮ У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА	786
56.	**H.Q.KARIMOV**. GENDER YONDASHUVI ASOSIDA BITIRUVCHI SINF O‘QUVCHILARIDA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA GENDER YONDASHUVINING IMKONIYATLARI	789
57.	**J.R.YARMETOV, N.A.BOBOYAROVA, D.S.AVEZOV**. MATEMATIK TA’LIMNING GLOBAL RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	792
58.	**SH.SH.MURODOVA, F.SH.MURATOVA**, **O.Q.BOTIROV**. MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHDA O‘QUV TOPSHIRIQLARIDAN FOYADALANISHNING AHAMIYATI	795
59.	**SH.U.HAMROYEVA**. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDAGI BA’ZI MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHGA QARATILGAN ILG‘OR G‘OYALAR	800
60.	**А.С.ДЖАНГАЗИЕВА**, **И.В.ТАРАСОВА** ПРОБЛЕМА ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ В УСЛОВИЯХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ РФ	802
61.	**N.B.ALLABERGANOV, Z.D.XUDOYBERGANOVA**. SHAXS AGRESSIYAKOR AXLOQINING SHAKLLANISH SHART-SHAROITLARI.	811
62.	**N.B.ALLABERGANOV, M.S.SABUROVA**. BOLALARDA AGRESSIVLIK HOLATI KELIB CHIQISHINING NAZARIY ASOSLARI	813
63.	**I.OTAJANOV**. JADIDLAR MA’NAVIY MEROSIDAN FOYDALANGAN HOLDA BO‘LG‘USI BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH	816
64.	**А.О.СУЛТОНОВА**. РОЛЬ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ В РАЗВИТИИ УЧЕБНОЙ АКТИВНОСТИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ	820
65.	**SH.SH.MAVLONOV**. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI TABIIY VA IQTISODIY MANBAALARDAN OQILONA FOYDALANISHGA O‘RGATISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI	823